https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Komiljonova Komilaxon Otabek qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich talabasi

https://orcid.org/0009-0008-0859-345X

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI OSHIRISH METODI

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz ingliz tilida va boshqa tillarda gapirish ko‘nikmasini oshirish va bu jarayonda qanday metodlar qo‘llash mumkinligi haqida o‘qishingiz mumkin. Bundan tashqari, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda qo‘llagan metodlardan qanday natijalar olish mumkinligi haqida so‘z boradi. Gapirish ko‘nikmasini rivojlantiradigan bir nechta usullarni ham o‘rganishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: gapirish ko‘nikmasi, eshitish ko‘nikmasi, metodlar, tilni o‘rganish, rivojlantirish, lug‘atlar, talaffuz, urg‘u, ohang.

Аннотация: В этой статье вы узнаете о том, как улучшить свои навыки говорения на английском и других языках и какие методы можно использовать для этого. Кроме того, будут рассмотрены результаты, которые дают методы развития навыков говорения. Вы также узнаете о нескольких методах развития навыков говорения**.**

Ключевые слова: навыки говорения, навыки аудирования, методы, изучение языка, развитие, словари, произношение, акцент, тон.

Annotation: In this article, you can read about how to improve your speaking skills in English and other languages and what methods you can use in this process. In addition, it will be discussed what results you can get from the methods you use to develop your speaking skills. You can also learn several methods that develop speaking skills.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords: speaking skills, listening skills, methods, language learning, development, dictionaries, pronunciation, accent, tone.

Kirish. Hozirgi kunda ko‘pchilik yoshlar va yoshi kattalar ham chet tillarini o‘rganishmoqdalar. Chet tilini o‘rganish degani shu tilda bemalol gapirish, o‘qish va yozishni mukammal o‘zlashtirishdir. Tilni o‘rganayotganingizda tabiiyki, siz darajangizni aniqlash maqsadida turli xil ko‘nikmalaringizni sinovdan o‘tkazasiz va darajangizni aniqlaysiz.

Har xil ko‘nikmalar orasida o‘rganuvchiga eng kerakli qismi bu gapirish ko‘nikmasidir. Sizda boshqa yozish, o‘qish yoki eshitish ko‘nikmalari rivojlansa ham gapira olmasangiz bu sizga qiyinchilik tug‘diradi.

Masalan, siz ingliz tilini o‘rganmoqdasiz ammo gapirish ko‘nikmasini rivojlantirmagansiz, ko‘chada, o‘qishda yoki ishda ingliz tilida gapirishga ehtiyoj sezdingiz bu paytda sizga o‘qish yoki eshitish ko‘nikmalariga qaraganda gapirish ko‘proq kerak bo‘ladi.

Ko‘p hollarda tilni muloqot qilish maqsadida o‘rganishadi. Muloqot qilish uchun ko‘p o‘qish kerak bo‘ladi. Qancha ko‘p o‘qisa, shuncha gapirish uchun ko‘p ma’lumot to‘playdi. Inson o‘qib to‘plagan malumotlari orqali savollarga javob beradi. [1]

Gapirish eshitish ko‘nikmasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda o‘quvchi eshitish orqali turli foydali ma’lumotlar olishi mumkin. Tinglab tushinish orqali siz talaffuzingizni ham yaxshilay olasiz.

Metod. Ingliz tilida gapirishni rivojlantirish uchun yordam beradigan bir nechta jihatlar mavjud hisoblanadi. O‘quvchi ingliz tilidagi lug‘atlarni bilmasa va turli xil iboralar qo‘llay olmasa nutq chiroyli va ravon bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, o‘rganuvchi avvalo ingliz tilidagi lug‘atlar ya’ni so‘zlarning tarjimalarini o‘rganishi va esda saqlab qolishi zarur. O‘quvchi oddiy so‘zlardan tashqari so‘z birikmalari, iboralar va ideomalarni ham o‘rganishi kerak. Bu turdagi so‘zlar orqali gapirilsa o‘quvchi chet tilida o‘zining ona tilidagi kabi gapira oladi.

[1] Jamol Jalolov. Chet til o’qitish metodikasi. T.: O’qituvchi, 2012

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Lug‘atlar bilan birga ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni ham o‘rganish zarur bo‘ladi. Chunki ingliz tilida talaffuz va urg‘u orqali ko‘p so‘zlar farqlanadi.

To‘g‘ri talaffuz qilish orqali gaplarning aniq va ravon eshitilishiga xizmat qiladi. Ingliz tilida yozilishi va ma’nosi har xil ammo o‘qilishi bir xil bo‘lgan so‘zlar yetarlicha.

Masalan, *see* va *sea* bu so‘zlarning yozilishi har xil ammo talafffuzi bir xil hisoblanadi.

Flower va *flour* so‘zlari ham xuddi *see* va *sea* kabi yozilishi har xil ammo o‘qilishi bir xil bo‘lgan so‘zlardir. Shu so‘zlarni yaxshi o‘zlashtirish nutqqa katta samara beradi.

Bularni o‘rganishning turlicha usullari mavjud. Masalan, ingliz tilida kinolar, podcastlar va multfilmlarni ko‘rib talaffuzini eshitib o‘rganish mumkin. Bundan tashqai so‘zlarni talaffuzini eshitib orqasidan orqasidan takrorlash orqali ham yaxshi natijaga erishish mumkin.

Har kuni urg‘u va ohangga aloqador mashqlar bajarib, talaffuzni aniq va to‘g‘ri qilishni o‘rganish zarur hisoblanadi.

Talaffuzni o‘rgangandan keyin ravon nutqni ham rivojlantirish zarur. Ingliz tilida gapirayotganda ravon, tutilmasdan va to‘g‘ri talaffuz bilan gapirish juda muhim.

Ravon nutqni o‘stirish uchun bir nechta metodlar qo‘llab o‘rganish mumkin.

1. Podcastlar eshitib ularni o‘zingizga qulay tarzda xulosa yozish va uni oynaga qaragan holatda gapirish.
2. Boshlanishida multfilmlar ko‘rib ulardagi o‘zingizga yoqqan va foydali birikmalar yoki gaplarni nutqingizda qo‘llab gapirish. Buni keyinchalik kinolarda qo‘llashingiz ham mumkin. Chunki boshida oson darajadan boshlasangiz o‘rganish osonroq bo‘ladi.
3. Har doim ko‘chada, uyda ish qilayotganda yoki bo‘sh vaqtingizda ingliz tilida ovoz chiqarmasdan o‘ziga-o‘zi gapirish. Buni keyinchalik oynaga qarab ovoz chiqarib gapirish ham kerak.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shu metodlarni qaysi tilni o‘rganayotgan bo‘lsangiz shu tilga moslashtirib foydalanishingiz mumkin.

Natijalar. Bu metodlar orqali juda katta o‘zgarishlar va foyda olish mumkin.

To‘g‘ri talaffuz qilish nutqning tabiiy chiqishiga xizmat qiladi. Kino, podcast va musiqalar orqali o‘quvchining nafaqat gapirishdagi talaffuzini balki, tinglab tushinish ko‘nikmasi (listening) yaxshi rivojlanadi.

Podcast eshitib xulosa yozish ham faqat nutq uchun emas, yozish (writing) va o‘qish (reading) ko ‘nikmalari uchun foydali hisoblanadi.

Oynaga qarab gapirayotganda o‘rganuvchida ko‘pchilik odamlar, auditoriyada uyalmasdan va hayajonlarsiz gapirish qobiliyati oshadi. Bu orqali o‘quvchi o‘ziga bo‘lgan ishonchni sezadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi qaysi tilni o‘rganishidan qat’iy nazar u o‘ziga ishonch bilan doimiy shug‘ullanishi zarur. O‘ziga qulay va samarali usullar orqali gapirish yoki shunga o‘xshash boshqa ko‘nikmalarini yaxshi rivojlantirisa bo‘ladi.

Xar bir metodning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib tilni mukammal o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jamol Jalolov. Chet til o’qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 2012